


4. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. – T., 1991 – 2025.
<b>Axborot manbalari</b>
1. <a href="https://n.ziyouz.com/kutubxona">https://n.ziyouz.com/kutubxona</a> – Ziyouz.com kutubxonasi
2. <a href="https://lex.uz/uz/">https://lex.uz/uz/</a> – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
3. <a href="https://www.gov.uz/uz">https://www.gov.uz/uz</a> – O'zbekiston Respublikasi hukumat portal.
4. <a href="http://til.gov.uz/uz/">http://til.gov.uz/uz/</a> – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat tilini rivojlantirish departamenti
5. <a href="https://www.edu.uz/uz">https://www.edu.uz/uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
6. <a href="https://tsuull.uz/">https://tsuull.uz/</a> – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti sayti
7. O'quv dasturi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil <u>28 - avgust</u> dagi yig'ilishida ko'rib chiqilgan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan ( <u>I</u> son bayonoma).
8. <b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> Yuldasheva Sh. – O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori
9. <b>Taqrizchilar:</b> Xudayarova M. – Nukus davlat pedagogika instituit dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. Maksumova S. – O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Ingliz tili 2-fakulteti dekani

 Z. Bazarov

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri


 Z. Salisheva

Universitet axborot resurs markazi direktori

 S. Kayumova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI



Rektor I. Tuxtasinov

2025-yil "28" avgust

Ro'yxatga olindi: BD 60230400 – TT1205

2025-yil "28" avgust

TILLAR TIPOLOGIYASI  
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 –	San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 –	Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230400 –	Kompyuter lingvistikasi

Toshkent – 2025

Fan/modul kodi TT1205		O'quv yili 2025-2026	Semestr 2	Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek tili		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Tillar tipologiyasi	60	90	150	
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni:</b>  <b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> – talabalarga lingvistik tipologiyaning obyekti va empirik bazasi, tipologik tadqiqotlar mavzusi va obyekti, lingvistik universallarni aniqlash, til darajalari tipologiyasi, areal lingvistika, shuningdek, tadqiqot vazifalari va usullari to'g'risida bilim berish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilshunoslik bilimlarining kompyuter lingvistikasi sohasidagi o'rnini ayon etish, tilning g'oyalari va tuzilishini shakllantirish, asosan, o'zbek, turk, ingliz va rus tillarining tipologik xususiyatlarini o'rgatish.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> – talabalarga nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, lingvistik tipologiyaning asosiy tushunchalarini o'rgatish; qiyoslanayotgan tillar leksikasi, frazeologiyasi, grammatikasidagi mushtarak va farqli jihatlar bilan tanishtirish; qiyoslanayotgan tillardagi mushtarakliklar va farqlanishlarni aniqlash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish; talabalarning nazariy va amaliy faoliyatida olgan bilim, ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olish malakasini shakllantirish.</p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda TOP-300 talik ro'yxatiga kiruvchi Argentinaning Buenos-ayres universiteti (Universidad de Buenos Aires) ta'lim dasturi tajribasini o'rgangan holda ishlab chiqildi.</p> <p><b>II. Asosiy qism (ma'ruza va seminar mashg'ulotlar)</b>  <b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b>  <b>Ma'ruza</b>  <b>2-semestr</b></p> <p><b>1-mavzu.</b> "Tillar tipologiyasi" fanining maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti. (2 soat)  <b>2-mavzu.</b> Tipologik tadqiqotlar tarixi. Dunyo tillari tasnifining nazariy</p>				

bo'yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma'lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba'zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo'l qo'yadi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.

**3 (qoniqarli) baho** – talaba topshiriqni mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talabada fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.

**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi.

#### Asosiy adabiyotlar:

1. Сапарова Қ.О., Минникулов И.У. Лингвистик таҳлил методлари: Дарслик. –Тошкент, 2022. – 291 б. 10019
2. Минникулов И.У. Лингвистик таҳлил методлари: Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2022. – 216 б. 5062
3. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. –Toshkent, 2020. – 256 b. 152
4. Umirov I.E., Xoliqova D.M. Tilshunoslik. –Toshkent, Bookmany print, 2024. – 286 b. 1019

#### Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/4561730>)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni (<https://lex.uz/docs/5058351>)
3. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. – T., 1991 – 2025.

	<p>– soʻz va tushuncha birligini anglash, nazariy bilimlarni tadqiq qilish va bilimlarini amaliyotda qoʻllay olish, turli xil lugʻatlardan toʻgʻri foydalana olish, leksikaning zamon va makon jihatdan farqlanishi haqida oʻz nuqtayi nazarini ilmiy asoslab berish va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish, til hodisalarini semantik tahlil qilish koʻnikmalarini egallaydi.</p>
4.	<p><b>VI. Taʼlim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <p>– talaba–gajet–oʻqituvchi paradigmasiga koʻra BYOD (bring your own device) texnologiyasi orqali masalalarni tahlil qilish, muammo yechimini topish;</p> <p>– oʻquv loyihalari (project-based learning) bajarish va taqdimotlarni (PowerPoint, Canva) orqali vizual tarzda ifodalash;</p> <p>– onlayn platformalarda klouz-test, interfaol ish varaqlari, raqamli mashqlar va boshqotirmalar (Google Docs, Liveworksheets, LearningApps) – hamkorlikda bajarish va tahrir qilish;</p> <p>– vazifaga asoslangan oʻrganish (task-based learning) orqali talabalar bir-birining ishlarini oʻqib, baholaydi, takliflar beradi.</p>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda oʻquv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi toʻgʻrisida Nizom”ga koʻra fanga ajratilgan kredit beriladi.</p> <p>Talabalarning bilimni baholash Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Oliy taʼlim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi toʻgʻrisidagi Nizom” talablari asosida belgilanadi.</p> <p><b>Talabalarning bilimni baholash mezonlari:</b></p> <p><b>5 (aʼlo) baho</b> – talaba topshiriqlarni mustaqil yondashgan holatda toʻgʻri bajaradi, amaliy muammo boʻyicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni toʻgʻri tahlil etish asosida maʼlum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini toʻgʻri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga toʻgʻri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega boʻladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash koʻnikmasiga ega boʻladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.</p> <p><b>4 (yaxshi) baho</b> – talaba topshiriqlarni mustaqil yondashgan holatda toʻgʻri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yoʻl qoʻyadi, amaliy muammo</p>

	<p>asoslari (2 soat).</p> <p><b>3-mavzu.</b> Jahon tillarining geneologik va tipologik tasnifi (2 soat).</p> <p><b>4-mavzu.</b> Hind-yevropa tillar oilasi tasnifi (2 soat).</p> <p><b>5-mavzu.</b> Oltoy tillar oilasi tasnifi (2 soat).</p> <p><b>6-mavzu.</b> Fonetik-fonologik tipologiya (2 soat).</p> <p><b>7-mavzu.</b> Leksik tipologiya (2 soat).</p> <p><b>8-mavzu.</b> Morfologik tipologiya. Tillarning morfologik klassifikatsiyasi (analitiklik, sintetiklik va polisintetiklik) (2 soat).</p> <p><b>9-mavzu.</b> Sintaktik tipologiya. Tillar tabiati: agglutinatsiya va fleksiya (2 soat).</p> <p><b>10-mavzu.</b> Dunyo tillari va xalqaro tillar (2 soat).</p> <p><b>11-mavzu.</b> Tirik va oʻlik tillar (2 soat).</p> <p><b>12-mavzu.</b> Sunʼiy tillar (2 soat).</p> <p><b>13-mavzu.</b> Lingvistik universalisiya. Etalon til (2 soat).</p> <p><b>14-mavzu.</b> Tillarning rivojlanishi va variantlashuvi (2 soat).</p> <p><b>15-mavzu.</b> Tipologik tahlil usullari, tipologik metodlar (2 soat).</p> <p><b>II.II. Seminar mashgʻulotlari</b></p> <p><b>1-mavzu.</b> Tilning paydo boʻlishi va rivojlanishi (2 soat).</p> <p><b>2-mavzu.</b> Tillar taraqqiyotidagi farqlanish va oʻxshashliklar (2 soat).</p> <p><b>3-mavzu.</b> Tillarning geneologik va tipologik tasnifiga oid tadqiqotlar (2 soat).</p> <p><b>4-mavzu.</b> Til oilalari va til guruhlari (2 soat).</p> <p><b>5-mavzu.</b> Dunyo tillari xaritasi bilan ishlash (2 soat).</p> <p><b>6-mavzu.</b> Qarindosh va qarindosh boʻlmagan tillar (2 soat).</p> <p><b>7-mavzu.</b> Turkiy tillar tarmogʻi va uning guruhlari (2 soat).</p> <p><b>8-mavzu.</b> Oʻzbek adabiy tili lahjalari va shevalari (2 soat).</p> <p><b>9-mavzu.</b> Oʻzbek tili va taqqoslanayotgan tillarda fonologik tipologiya (2 soat).</p> <p><b>10-mavzu.</b> Oʻzbek tili va taqqoslanayotgan tillarda leksik tipologiya (2 soat).</p> <p><b>11-mavzu.</b> Tirik va oʻlik tillar. Tilning hayotiylik omillari (2 soat).</p> <p><b>12-mavzu.</b> Sunʼiy tillar. Esperanto tili – xalqaro sunʼiy til (2 soat).</p> <p><b>13-mavzu.</b> Lingvistik universalisiya va lingvistik tipologiya (2 soat).</p> <p><b>14-mavzu.</b> Tillarning oʻzaro taʼsiri (2 soat).</p> <p><b>15-mavzu.</b> Tipologik metodlar va rivojlanishi (2 soat).</p> <p><b>III. Seminar mashgʻulotlari boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar:</b></p> <p>Seminar mashgʻulotlari tillar tipologiyasi masalalari yuzasidan bilim va koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratiladi. Quyidagi faol va interfaol</p>
--	---

metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

– suhbat, bahs-munozara, o'quv loyihasi orqali mavzuni chuqurroq o'zlashtirish.

– “Tezkor savol-javob”, “Tushunchalar tahlili”, “Aqliy hujum” kabi metodlar yordamida mavzuga oid tushunchalarni aniqlash va muhokama qilish.

– tillar tipologiyasi asoslarini tushunishga yordam berish maqsadida qisqa videolar, hujjatli filmlar namoyish etiladi.

– yozma topshiriqlar: an'anaviy yozuv shakllari bilan bir qatorda, topshiriqlarni Microsoft Word hujjati yoki onlayn platformalar (Google Docs va h.k.) orqali topshirish imkoniyati yaratiladi.

#### IV. Mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:

Talabalarning mustaqil ta'lim shaklini tashkil etishga qo'yilgan talablar O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta'lim muassasalari talabalari mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to'g'risida”gi buyrug'i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida quyidagilarga ko'ra amalga oshiriladi:

– o'tilgan mavzuni chuqur o'rganishlari uchun darslik, o'quv materiallari bilan faol ishlash;

– amaliy mashg'ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;

– fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etish;

– mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymaslik;

– kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish.

#### Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– mavzu yuzasidan tahliliy ma'lumot (esse) tayyorlash;

– badiiy-ijodiy ishni bajarish;

– aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash;

– berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;

– amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;

– ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;

#### 2-semestr

#### Mustaqil ta'lim mavzulari

1-mavzu. Tipologik tadqiqotlar tarixi bo'yicha taqdimot tayyorlash (4 soat)

2-mavzu. Dunyo tillari xaritasini tayyorlash (6 soat)

3-mavzu. Turkiy tillar oilasi guruhleri va ulardagi farqli jihatleri bo'yicha loyiha ishi (10 soat)

4-mavzu. Hind-yevropa tillar oilasi guruhleri va ulardagi farqli jihatleri bo'yicha loyiha ishi (10 soat)

5-mavzu. Som-xom tillari oilasi va o'zbek tili bo'yicha loyiha ishi (10 soat)

6-mavzu. Xitoy-tibet tillari oilasi va o'zbek tili bo'yicha loyiha ishi (10 soat)

7-mavzu. Xalqaro til, jahon tili, davlat tili, rasmiy til tushunchalari sharhlangan taqdimot tayyorlash (4 soat)

8-mavzu. Muayyan til va o'zbek tilining fonetik-fonologik tipologiyasi bo'yicha loyiha ishi (10 soat)

9-mavzu. Muayyan til va o'zbek tilining leksik tipologiyasi bo'yicha loyiha ishi (10 soat)

10-mavzu. Muayyan til va o'zbek tilining morfologik tipologiyasi bo'yicha loyiha ishi (10 soat)

11-mavzu. Muayyan til va o'zbek tilining sintaktik tipologiyasi bo'yicha loyiha ishi (6 soat)

#### 3. V. Fan o'qitilishining natijalari (kasbiy kompetensiyalar)

#### Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

– Fanga oid leksik qonun-qoidalar, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiyaning boshqa tilshunoslik fanlari orasidagi o'rni, uning grammatika, fonetika, stilistika kabi bo'limlari bilan aloqasini, so'z va leksema tushunchalari, so'zning ma'nosi, vazifasi, so'zlarning o'z ma'nolarini o'zgartirish masalalari haqida tasavvurga ega bo'ladi;

– so'z va uning ma'nolariga oid nazariy bilimlarni amaliy jihatdan o'rganish va baholash, til lug'at tarkibi rivojlanishining asosiy tendensiyalari to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish, ijtimoiy jargonlar va terminologiyani tahlil qilish, adabiy tilning o'ziga xos me'yorlarini anglash uni shevadan farqlay olishni bilishi va ulardan foydalana oladi;